

**XALQARO HUQUQ VA TINCHLIK: GLOBAL TINCHLIK VA
BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Umirzoqova Nargiza O'ktam qizi

Bojxona institutining YuP 124-guruh kursanti,

e-mail: nargizaumirzoqova04007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro huquqning global tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni hamda unga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Xalqaro huquqiy normalar, BMT Nizomi va kuch ishlatmaslik tamoyillarining ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik va ekologik muammolarning (iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar) global xavfsizlikka tahdidlari statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatilgan. Parij kelishuvi, Rio-de-Janeyro sammiti va Global tinchliksevarlik indeksi kabi xalqaro ko'rsatkichlar orqali bugungi kunda dunyodagi geosiyosiy vaziyat va barqaror rivojlanishning huquqiy mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, global tinchlik, barqarorlik, BMT Nizomi, iqtisodiy tengsizlik, ekologik xavfsizlik, iqlim o'zgarishi, Global tinchliksevarlik indeksi, suverenitet..

Аннотация: В данной статье анализируется роль международного права в обеспечении глобального мира и стабильности, а также основные факторы, влияющие на них. Освещается значимость международно-правовых норм, Устава ООН и принципа неприменения силы. Кроме того, на основе статистических данных рассматриваются угрозы глобальной безопасности, вызванные экономическим неравенством, безработицей и экологическими проблемами (изменение климата, стихийные бедствия). Через призму таких международных показателей, как Парижское соглашение, Саммит в Рио-де-Жанейро и Глобальный индекс миролюбия, исследуются современная геополитическая ситуация и правовые механизмы устойчивого развития.

Ключевые слова: Международное право, глобальный мир, стабильность, Устав ООН, экономическое неравенство, экологическая безопасность, изменение климата, Глобальный индекс миролюбия, суверенитет.

Annotation: This article analyzes the role of international law in ensuring global peace and stability, along with the key factors influencing them. It highlights the importance of international legal norms, the UN Charter, and the principles of non-use of force. Furthermore, the article examines the threats to global security posed by economic inequality, unemployment, and environmental issues (climate change, natural disasters) based on statistical data. Through international indicators such as the Paris Agreement, the Rio de Janeiro Summit, and the Global Peace Index, the current global geopolitical situation and the legal mechanisms for sustainable development are thoroughly explored.

Keywords: International law, global peace, stability, UN Charter, economic inequality, environmental security, climate change, Global Peace Index, sovereignty.

Xalqaro huquq – bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, xalqaro tashkilotlar, shaxslar va boshqa subyektlarning huquqlarini va majburiyatlarini belgilovchi huquqiy qoidalar majmuasidir. Butun dunyoda urushlar, turli xil nizolar, ijtimoiy beqarorlik va qo'rquvdan holi, barqaror va xavfsiz yashash muhiti global tinchlikdir. Global tinchlik bu faqat urushning yo'qligi emas, balki barqaror iqtisodiy, siyosiy va huquqiy muhitdir. Dunyo bo'yicha adolat, tartib va tinchlikni saqlash xalqaro huquqning asosiy maqsadlaridan biridir. Hozirgi jadal globallashib borayotgan dunyoda insoniyat hayoti va xavfsizligi, iqtisodiy va ekologik barqarorlik, madaniy va diniy bag'rikenglik hamda xalqaro hamkorlikni ta'minlashga xalqaro huquqning ko'magi bilan erishish mumkin. Xalqaro huquq shartnomalar, odatiy huquq normalari va xalqaro tashkilotlar va sudlar faoliyatini tashkil etish orqali ko'zlagan maqsadlariga erishadi [1]. 1945-yil 26-iyunda Birlashgan Millatlar Konferensiyasining yakuniy majlisida imzolangan BMT Nizomiga ko'ra, xalqaro tinchlikni saqlash – tashkilotning eng asosiy vazifalaridan biridir. BMT Nizomining 2-moddasida esa, "Har qanday davlat boshqa davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va kuch ishlatmaslik tamoyiliga amal qilishi kerak" deyilgan. Xalqaro huquqning muhim prinsiplaridan biri esa, kuch ishlatmaslik tamoyilidir [2].

Xalqaro huquq tinchlikni ta'minlashning normativ-huquqiy bazasini yaratadi va davlatlar o'rtasidagi har qanday nizolarni hal qilish, kuch ishlatishdan saqlanish va har taraflama rivojlangan diplomatik aloqalar o'rnatish orqali tinchlikni saqlashga yordam beradi.

Iqtisodiy tengsizlik va beqarorlik global tinchlikka tahdid qiluvchi eng muhim omildir. Jamiyatda boylik va daromadlarning keskin nomutanosib taqsimlanishi ijtimoiy beqarorlik o'sishiga va barqaror rivojlanishga ta'sir qiladi. Iqtisodiy tengsizlik va beqarorlik, jamiyatning boy va kambag'al qatlamlari o'rtasidagi farqning kengayishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va munosib ish o'rinlaridan foydalanishdagi cheklovlar, ijtimoiy keskinlik, jinoyatchilik va siyosiy noroziliklar hamda past iqtisodiy o'sish kabi jihatlarida namoyon bo'ladi. So'nggi o'n yilliklarda iqtisodiy tengsizlik darajasi deyarli butun dunyoda 11 foizga oshgan. Eng past ko'rsatkich Yevropada, eng yuqori ko'rsatkich esa Yaqin Sharqda qayd etilgan. Jini koeffitsienti bo'yicha Janubiy Afrika Respublikasi, Braziliya, Kolumbiya, Chili, Zambiya singari davlatlarda iqtisodiy tengsizlik darajasi eng yuqori etib belgilangan va bu holatlar, noto'g'ri soliq siyosati, imkoniyatlaning tengsizligi, pandemiya oqibatlari, daromadlar o'rtasidagi katta tafovutlar sababli kelib chiqqan. Xalqaro mehnat tashkilotining «Global bandlik va ijtimoiy istiqbollar: 2023 yildagi tendensiyalar» hisobotiga ko'ra, dunyoda ishsizlik darajasi oshdi. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil oxirida dunyoda ishsizlar soni 205,2 million kishini tashkil qilgan. Bu 2021-yilga nisbatan 11,2 million kishiga va pandemiya boshlangan 2020-yilga nisbatan 30 millionga kamdir. Biroq pandemiya oldingi davrga (2019 yil) nisbatan bu ko'rsatkich 13,3 million kishiga ko'proqdir.

Xalqaro mehnat tashkilotining prognozlariga ko'ra, dunyoda ishsizlar soni 3 millionga oshib, 208,2 million kishiga, 2024 yilda esa 210,9 million kishiga yetadi. Mintaqalar bo'yicha

ishsizlikning eng past darajasi (5,2 foiz) Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarida kuzatilgan. Yurtimizda esa, bu ko'rsatkich 2015-2022-yillarda 2 barobarga qisqargan shu bilan birga, Yevropa hamda Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan [3], [4].

Xalqaro huquqning **rivojlanish huquqi** prinsiplariga binoan, har bir davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy farovonligini ta'minlashga majburdir. Xalqaro huquq rivojlanishni rag'batlantirish orqali tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki iqtisodiy barqarorlik va farovonlik jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlikning oldini oladi. Jahon banki (World Bank) va Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund, IMF) kabi xalqaro tashkilotlar global iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali tinchlikka hissa qo'shadi. Xalqaro huquq, rivojlanish huquqi, sanksiyalar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar orqali iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish va tinchlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi, Iqtisodiy barqarorlikka erishish, o'z navbatida, ichki va xalqaro mojarolarni kamaytiradi va global xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Global tinchlikka ta'sir ko'rsatuvchi ya'na bir omillardan biri bu - ekologik muammolardir. Tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi qachon sodir bo'lishi va uni boshqarish insoniyatning qo'lida emas. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq holda yuz bergan ob-havo va tabiiy ofatlar oxirgi 10 yil ichida 410 mingdan ko'proq kishining hayotini olib ketgan va oxirgi 50 yil ichida iqlim, ob - havo sharoiti bilan bog'liq 11 mingga yaqin tabiiy ofat yuz bergan. Ularda ko'rilgan umumiy zarar esa, 3,6 trln dollarni tashkil qilgan. Dunyo bo'ylab 70% insonlar kasallik tufayli vafot etadilar. Bu kasalliklar sababchisi, ekologik muammolardir, ya'ni havo va suv ifloslanishi kabilar [5].

Ekologik muammolar dunyo bo'ylab katta tartibsizliklar keltirib chiqaradi va katta hajmdagi migratsiyaga olib keladi, bu borada ekologik xavfsizlikning xalqaro huquqiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro normalar tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga qaratilgan. Stokgolm va Rio-de-Janeyro konferensiyalari hamda Parij kelishuvi ekologik huquqning asosi bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha umumiy tamoyillarni belgilab bergan.

«**Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqida**»gi konvensiya 2001-yil 22-mayda Stokgolm shahrida qabul qilingan va 2004-yildan kuchga kirgan. Hozirgi kunda 182 ta mamlakat konvensiya ishtirokchisi hisoblanadi. Yetakchi davlatlardan AQSh, Italiya va Isroil konvensiyani imzolagan bo'lsa-da, ratifikatsiya qilmagan. Ushbu Konvensiya aholi salomatligi va atrof-muhitni turg'un organik ifloslantiruvchi moddalardan muhofazalash maqsadida ularni keskin qisqartirishga, tashlanmalarini to'xtatishga hamda odam organizmida va ekotizimlarda qayta tiklab bo'lmaz o'zgarishlarga olib keluvchi 12 ta xavfli birikma ishlab chiqarilishini, ishlatilishini chegaralash yoki taqiqlashga yo'naltirilgan [6].

Rio-de-Janeyro (yoki Yer sammiti) 1992-yil 3-14 iyun kunlari Braziliyada bo'lib o'tgan, barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan BMTning yirik konferensiyasidir. Bu tadbirda asosiy e'tibor iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillik va cho'llanishga qarshi kurashish kabi global ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan. 1992-yil 5-iyunda imzolangan bo'lib, O'zbekiston mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 82-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik rang-baranglik to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishi haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan [7].

Parij kelishuvi — bu iqlim o'zgarishi bo'yicha huquqiy jihatdan majburiy xalqaro shartnoma. U 2015-yil 12-dekabrda Fransiyaning Parij shahrida BMT Iqlim O'zgarishi Konferensiyasida (COP21) 195 davlat tomonidan qabul qilindi va 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirdi. Hozirda, 2026-yil 27-yanvar holatiga ko'ra, Parij Shartnomasiga 194 ta tomon qo'shilgan. Shartnomaning asosiy maqsadi — "global o'rtacha haroratni sanoat oldi davridan 2°C dan past darajaga ushlab turish" va "temperaturani sanoat oldi darajalaridan 1.5°C ga oshmaslikka urinishlar"ni amalga oshirishdir [8].

«Global tinchliksevarlik indeksi» (Global Peace Index) — Tinchlik instituti hamda Sidney universitetining tinchlik va mojarolarni o'rganish markazining sotsiologlar va iqtisodchilardan iborat ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqiladi. U mamlakatlar va mintaqalarda yashash xavfsizligini ko'rsatadi.

Bu indeks ilk marta 2007 yilda hisoblab chiqilgan. O'shanda ushbu indeks mamlakatlarni yashash xavfsizligiga qarab ajratishga dastlabki urinish sifatida tilga olingan.

Global tinchliksevarlik indeksi (GPI) global tinchlikni saqlash va barqarorlikni ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. U iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillarni o'z ichiga olib, davlatlarning tinchlik darajasini ob'ektiv tarzda o'lchash imkonini beradi. GPI uchta asosiy yo'nalishni o'lchaydi: jamiyatdagi xavfsizlik darajasi, davom etayotgan ichki va xalqaro mojarolar hamda harbiylashuv darajasi. Global tinchliksevarlik indeksining 2024-yilgi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda dunyoda 57 ta konflikt mavjud va bu Ikkinchi jahon urushidan buyon eng yuqori darajada. Konfliktlar oqibatida o'limlarning ko'payishi, tezlashayotgan geosiyosiy tarangliklar va o'rtacha davlatlarning o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga bo'lgan intilishi "Katta Fragmatsiya"ni yaratmoqda — bu global tartibning asosiy qayta shakllanishi va yangi geosiyosiy davrning boshlanishini anglatadi. «Global tinchliksevarlik indeksi» mamlakatlarni besh toifaga ajratadi: tinchliksevarlik darajasi bo'yicha «o'ta yuqori», «yuqori», «o'rtacha», «past» va «o'ta past» kabi ko'rsatkichlar beriladi. Islandiya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda tinchlik yuqori darajada ekanligi qayd etilgan, O'zbekiston esa 2023-yilgi reytingda ikki o'ringa pastlagan, 86-o'rindan joy egallab, «o'rtacha» darajasini saqlab qolgan. Markaziy Osiyo vakillaridan Qozog'iston—76, Turkmaniston—100, Qirg'iziston— 101, Tojikiston — 102-o'rinda joylashgan. Afg'oniston esa ro'yxatning eng so'nggi — 163-o'rinidan joy olgan. Tinchliksevarlik darajasi «o'ta past» — qizil zonadan Afg'onistondan tashqari, Yaman,

Suriya, Janubiy Sudan, Kongo Demokratik Respublikasi, Rossiya, Ukraina, Somali, Sudan, Iroq, Mali va Markaziy Afrika Respublikasi kabi davlatlar o'rin olgan [9].

Xalqaro huquq va global tinchlik tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bugungi kunda bu muvozanat iqtisodiy va ekologik inqirozlar sababli sinovdan o'tmoqda. Maqolada keltirilgan raqamlar va xalqaro shartnomalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, faqatgina "urushning yo'qligi" tinchlik uchun kifoya qilmaydi. Global barqarorlikka erishish uchun iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarini bajarish va nizolarni diplomatik yo'l bilan hal qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Zero, adolatli xalqaro huquqiy tartib o'rnatilmas ekan, global tinchlik tushunchasi mo'rt bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro huqning asosiy prinsiplari va ularning ahamiyati. Mavlonov.F. <https://cyberleninka.ru/>
2. <https://uz.wikipedia.org/>
3. Iqtisodiy tengsizlikning kuchayishi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish sur'atini sekinlashtirdi - Jahon banki. <https://kun.uz/>
4. O'zbekistonda kambag'allik sezilarli darajada qisqargan. <https://kun.uz/>
5. Oxirgi 50 yil ichida dunyoda tabiiy ofatlar soni besh baravarga ko'paydi. <https://kun.uz/>
6. O'zbekiston Stokgolm konvensiyasini ratifikatsiya qildi. <https://kun.uz/>
7. "O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik rang-baranglik to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishi haqida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/>
8. The Paris Agreement. <https://unfccc.int/>
9. Research: Global Peace Index 2025. <https://www.visionofhumanity.org/>